

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 183 (1782), 2026-yil 4-sentabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA AQSH O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIKNI MUSTAHKAMLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Kongressi senatori, Senatdagi Markaziy Osiyo bo‘yicha kokus hamraisi Stiv Deynsni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida AQSH senatori davlatimiz rahbari va xalqimizni mamlakat mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy tabriklab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash hamda parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama hamkorlikni har qachongidan ham yuqori

darajaga ko‘tarishga erishilgani, muloqotlar va delegatsiyalar almashinuvi jadal sur‘at kasb etgani mamnuuniyat bilan qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi. Energetika, muhim minerallar, transport, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar va sanoat yo‘nalishlarida yirik loyihalar izchil amalga oshirilmoqda.

Hududlar o‘rtasida, xususan, senator vakili bo‘lgan Montana shtati bilan aloqalarni

yanada rivojlantirish istiqbollariga alohida urg‘u berildi.

“C5+1” formatidagi hamkorlik hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH BO‘YICHA ISHLAR YANGICHA TASHKIL ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 3-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholini daromad manbalari bilan ta‘minlash va mahalla darajasida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu maqsadlar uchun hududlarga katta vakolat, moliyaviy resurs va infratuzilmaviy imkoniyatlar berildi, har bir oila bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Natijada yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi bugungi kunga kelib 3,9 foizga tushdi. Ehtiyojmand aholi soni 2 million 200 ming nafardan 1,5 million nafarga kamaydi. Ishlar to‘g‘ri tashkil etilgan 49 ta tuman va 3 ming 429 ta mahalla ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, hududlar kesimida natijalar bir xil emasligi ko‘rsatib o‘tiladi.

So‘nggi uch yilda mahallalardagi tadbirkorlik loyihalari uchun 314 trillion so‘m resurs ajratildi. Lekin bir xil miqdorda mablag‘ olgan hududlarda kambag‘allikni qisqartirish samaradorligi keskin farq qilayotgani tahlillar orqali ko‘rsatildi.

Masalan, Sharof Rashidov va Qarshi tumanlariga 2 trillion 300 milliard so‘mdan kredit resursi berilgan. Sharof Rashidov tumanida mazkur mablag‘lar hisobiga 30 ming nafar aholi kambag‘allikdan chiqarilgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 13 ming nafar ehtiyojmandning sharoiti yaxshilangan.

Shu bois, kredit ajratishning o‘zi yakuniy natija sifatida qaralmasligi, har bir loyiha qancha doimiy ish o‘rni yaratgani va qancha oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lgani bilan baholanishi belgilandi.

Yig‘ilishda joylarda natijaga erishishga to‘g‘ri qaratilgan omillar ham tahlil qilindi. Xususan, hokim yordamchilari va mahalla bankirlarining barchasi ham biznes loyihalarini shakllantirish, moliyaviy instrumentlarni to‘g‘ri tanlash va tadbirkor bilan uning g‘oyasidan tayyor biznesgacha ishlash ko‘nikmasiga ega emasligi qayd etildi.

So‘nggi bir yilda hududlarda tashkil etilgan 86 mingta kichik korxonaning 15 mingtasi

faoliyatini to‘xtatgan. Bankdan kredit olib, biznesini kutilgan darajada yo‘lga qo‘ya olmagan 62 ming nafar fuqaro kreditlarni qaytarishda qiynalmoqda.

Shu munosabat bilan aholi va tadbirkorlarga faqat moliyaviy resurs taklif etish emas, balki bozor, texnologiya, kasb, biznes reja va sotuv zanjirini ham qamrab olgan kompleks yechim berish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bu borada Xorazm viloyatida o‘tkazilgan o‘rganishlar misol qilib keltirildi. Prezident topshirig‘iga muvofiq, iqtisodiy kompleks rahbarlari ikki hafta davomida viloyatdagi 81 ming nafar kambag‘al aholi, ya‘ni 19 ming oilaning sharoitini o‘rgandi. Ushbu oilalarda 12 ming nafar ishsiz va 10 ming nafar daromadi past aholi borligi aniqlandi.

Ayni paytda Xorazmdagi tadbirkorlar qurilish sohasiga 4 ming, xizmatlar sohasiga 3 ming va sanoatga 2,5 ming nafar ishchi izlamogda. Mavjud bo‘sh ish o‘rinlari va kasbga tayyorlash imkoniyatlarini o‘zaro bog‘lash orqali kambag‘al oilalardagi 10-15 ming nafar aholi daromadini oshirish mumkinligi qayd etildi.

Shuningdek, o‘rganilgan ehtiyojmand oilalarda 48 ming nafar bola borligi, ularni hozirdan kasb-hunar va zamonaviy ko‘nikmalarga yo‘naltirish muhimligi ta‘kidlandi. Yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollariga maktablar, texnikumlar va o‘quv markazlarida bunday oilalar farzandlari uchun qo‘shimcha to‘garaklar tashkil etish vazifasi belgilandi.

Xorazmda kambag‘al oilalardagi 10 mingdan ziyod ayol farzand parvarishi bilan band. Shu bois, bola parvarishlayotgan otadonalar uchun uyida yoki mahallaning o‘zida daromadli mehnat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, farzandlarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish orqali ularning mehnat bozoriga qaytishiga sharoit yaratish zarurligi qayd etildi.

Xorazm misolidagi tahlillar barcha hududlarga taalluqli ekani ta‘kidlanib, kambag‘allik bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Endilikda har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligida maxsus shtablar tashkil etiladi. Banklar, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleksning boshqa tashkilotlari ushbu shtablar bilan birgalikda aholi bandligi va daromadini oshirish masalalarini joyning o‘zida hal qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari iqtisodiy kompleks bilan birgalikda haftaning uch kunini bevosita kambag‘allik va bandlik masalalariga bag‘ishlaydi.

Yangi tizimning eng muhim jihati esa moliyaviy resurslar va qaror qabul qilish vakolatlarining katta qismi tuman darajasiga tushirilishi bo‘ladi. Oilaviy va yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha imtiyozli kredit resurslarini boshqarish vakolati tuman shtablariga o‘tkaziladi.

Hozir oilaviy tadbirkorlik uchun 1 trillion 370 milliard so‘m, yoshlar tadbirkorligi uchun 450 milliard so‘m resurs mavjud. Tuman shtablari mahalliy sharoit va loyihaning xususiyatidan kelib chiqib, kimga qancha kredit berish, uning muddati va to‘lov grafignini biznes turiga moslashtirish masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kredit, lizing, faktoring, kafolat, sug‘urta, aylanma mablag‘ va boshqa moliyaviy instrumentlar tadbirkorlik loyihasining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo‘llanadi. Dehqonchilik, savdo, xizmatlar va boshqa yo‘nalishlarda daromadning shakllanish muddati turlicha bo‘lgani uchun moliyalashtirish shartlari ham shunga mos bo‘lishi kerakligi ta‘kidlandi.

Kooperatsiyaga asoslangan loyihalariga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Lider tadbirkor 10 ta oila bilan kooperatsiya qilsa, 500 million so‘mgacha, 100 ta oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ysa, 5 milliard so‘mgacha garovsiz kredit olishi mumkin bo‘ladi.

Kredit tarixida kechikish bo‘lgan ehtiyojmand aholining tashabbuslari ham individual baholanadi. Istiqbolli loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

Davomi 2-beta

SAMARQAND KONFERENSIYASI: YOSHLAR – ISLOHOTLARNING KUZATUVCHISI EMAS, FAOL ISHTIROKCHISI

Har qanday islohotning haqiqiy qiymati uning bugungi natijasida emas, ertangi avlod taqdirida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistondagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri yoshlarga munosabatning tubdan o‘zgarganidir. Bugun yoshlar davlat siyosatining obyekti emas, balki uning faol ishtirokchisi, tashabbuskori va harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqmoqda.



4-6 September 2026, Samarkand, Uzbekistan

Twelfth IPU Global Conference of Young Parliamentarians

Reclaiming human rights, justice and dignity for all in turbulent times



davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalaridagi faolligini oshirish uchun muhim huquqiy poydevor vazifasini bajarmoqda. Shuningdek, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga

qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bu siyosatni izchil mexanizmlar bilan boyitib bormoqda.

Davomi 2-beta

SHHT – DAVR TAQOZO ETAYOTGAN MULOQOT MAYDONI



Mamlakatimiz yetakchisi Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 31-avgust – 1-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etdi.

Davomi 2-beta

Kun tartibiga muvofiq tashkilotning 25 yillik faoliyati davomida erishilgan yutuqlar, barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikni kengaytirish va birgalikdagi taraqqiyotni davom ettirish borasidagi istiqbolli vazifalar muhokama qilindi. Eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Majlisda delegatsiyalar rahbarlari Prezidentimizni va O‘zbekiston xalqini mustaqillik kuni bilan samimiy tabrikлади. Davlatimiz rahbarining keng ko‘lamli islohotlari, mamlakat barqarorligi, xavfsizligi va ravnaqini mustahkamlash, xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan pragmatik va ochiq tashqi siyosatini yuksak baholadi.



“Inson nimasiz yashay olmaydi?” degan savolga ilm-fan bir olam farazlarni keltirishi mumkin. Lekin aslini olganda hamma narsang muhayyo bo‘lsa-yu, erkin bo‘lmasang, o‘zingni hayot sanash mushkul. Buni dono xalqimiz, mutafakkir ajdodlarimiz va buyuk tariximiz ko‘p bora isbotlagan. Ular erksizlikni oltin qafasga, yurtidan ayrilishni esa yuzi qarolikka tenglashtirgan. Qarangki, bu haqiqatlar asrlar o‘tib, zamonlar o‘zgarsada-da, hali-hanuz purma’noligini yo‘qotmay kelmoqda.



Vatanning suratini qalbda chizish, uni yurakka joylash uchun ham erk kerak. Qo‘rqmasdan bayrog‘ingni ko‘tarish, madhiyangni eng baland ovozda kuylash, boshingni tik tutish, qaddingni rostlash, bobong izidan yurish, onang allasini tinglash, bolang uchun o‘z tilingda erak aytish, baxtdan kuylash, hatto g‘amdan yig‘lash uchun

ham sen aynan o‘zing bo‘lishing kerak. Bu oddiy, lekin ulkan baxtlarga chinakam erksiz erishib bo‘lmaydi. Shu bois, mustaqillik haqida balandparvoz gapirishdan ko‘ra, uni qalbdan his qilishning o‘zi ba‘zan yetarli bo‘ladi.

Davomi 3-beta

BIZNES BILAN OCHIQ MULOQOT

IQTISODIY MUHITNING SHAKLLANISH YO‘LI

XX asrning oxiri va XXI asr boshida jahon iqtisodiyoti tub o‘zgarishlar pallasiga qadam qo‘ydi. Globallashuv jarayonlari davlatlarning iqtisodiy chegaralarini nisbiylashtirib, kapital, zamonaviy texnologiyalar, tovar va xizmatlarning xalqaro harakatini mislsiz darajada tezlashtirdi.

Bugungi dunyoda mamlakatlarning iqtisodiy qudrati faqat yer osti boyliklari, arzon ishchi kuchi yoki xomashyo ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki xususiy tashabbus uchun yaratilgan sharoit, mulk huquqi daxlsizligi, halol raqobat muhiti, mustahkam investitsiya kafolatlari hamda davlat institutlari samaradorligi bilan belgilanmoqda.

Ana shunday murakkab va mas’uliyatli

tarixiy sharoitda — 1991-yilda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston oldida bir vaqtning o‘zida ikkita ulkan vazifa bor edi: birinchisi — mustaqil davlatlik asoslarini barpo etish, ikkinchisi — markazlashgan ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan milliy bozor iqtisodiyotiga o‘tish.

Davomi 4-beta



2026-yil 4-sentabr, 183-son

6

YANGI O'ZBEKISTON

yuz.uz_news



yuz.uz_news

Yangi O'zbekiston ruhi

35 YIL: TARIXIY TANTANA

Akrom MALIK,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



sevishi, shu yerda odamlar bilan qalbi payvandlashib ketishi odamiylik taqozosidir.

Inson vatan va xalq tashvishidan, diyanat va adolat g'amidan yiroqda yashashi mumkin emas. Kimki elning musibatidan yig'lamasa, odamlar azobidan iztirob chekmasa yoki yurtning bayramidan sevinmasa, ulusning yutug'idan quvonmasa, uning odamiyligida juda katta bo'shliq mavjudligi aniq. Tirik insongina millat va davlat, el va ulus bilan birga yashaydi. Odamlarning g'ami sababli g'am chekib, sevinchlari sababli shodlanadi. Chunki bunday tuyg'u fitriy tuyg'ulardan biri bo'lib, kishining o'z uyi, ko'chasi, mahallasi, qishloq yoki shahrini



Bundan kelib chiqadiki, bugun o'lkamizda yashayotgan hech kim millat va davlatning biror kuni, biror ishiga befarq bo'lishi mumkin emas. Ayniqsa, bu bayram bo'lsa, bo'lib ham Mustaqillik bayrami bo'lsa, mutlaqo boshqa mohiyat, boshqa bir ahamiyat kasb etadi.

Kuni kecha mustaqilligimizni o'tiz beshinchi marta bayramu shodiyona qilib nishonladik. Bayramning o'zgacha ruhiyat va quvvat bilan o'tgani har bir qalb va aql egasiga ma'lum. Davlatimiz rahbari ishtirokidagi eng katta tantana, asosan, ikki qismdan iborat bo'ldi: Prezidentimiz nutqi hamda bayram tadbiri. Bayram namoyishi esa aniq va ravshan ikki qismga ajraldi, nazarimizda: birinchi qism vatanimiz tarixidagi davlatlar zikr etildi va ularning bayroqlari hilpiradi, kechmishimiz hikoya qilindi. Mustaqil yangi O'zbekiston uch ming yillik davlatchilikning davomchisi ekanini ko'rsatildi. Ikkinchi qism zamonaviy xonanda va boshqalarning chiqishlaridan iborat bo'ldi.

Prezidentimizning bayramda so'zlagan tarixiy nutqi 35 yillikning, balki oxirgi 10 yillikning xalq oldidagi hisoboti bo'lish bilan birga davlat siyosatining kelgusi yillardagi yo'nalishlarini belgilab beradigan konsepsiyaga aylandi. Uning mohiyatini bir qancha muhim tezislariga ajratgan holda chuqurroq anglash mumkin. Xususan, birinchi asosiy tezis mustaqillik g'oyasining asosidan iborat bo'lib, u o'ziga xos falsafiy mazmunga ham egadir. Ya'ni Prezidentimiz mustaqillik ne'matini bergan Parvardigorimizga cheksiz shukronalar bo'lsin deya istiqloq ne'mati, avvalo, Yaratganning in'omi ekanini ta'kidlaydi. Agar u qodir qilmaganida edi, bu ne'matga erishmoq mumkin bo'lmadi. Ushbu yondashuv davlat mustaqilligi haqidagi e'tiqodning o'zagi ajdodlarimiz suvangan poydevor bilan birligini va mustahkamligini ifodalaydi.

Ikkinchi falsafiy nuqta shundaki, istiqloq bunyodkori va mustaqillik yutuqlari muayyan shaxs yoki guruhga tegishli deya talqin

etilmadi. Balki istiqlolimiz ijodkori va haqiqiy bunyodkori xalq ekanini ta'kidlanishi, barcha g'alaba va yutuqlar xalqning salohiyati hamda intilishlari mahsuli hisoblanishi e'tirof etilishi xalq davlatning asosi va ildizi, davlat esa elning himoyachisi, xizmatkori va rahbari ekanini haqidagi haqiqatni yuzaga chiqaradi.

Uchinchi muhim masala davlat va xalqning birlashuvi falsafasidir. Davlat va xalq jipsligi, o'zaro ishonchi har qanday zafarning kaliti va boshlanish nuqtasi bo'lib, bu ikki kuch ajralsa, hech bir maqsad hosil bo'lmaydi.

To'rtinchi ahamiyatli jihat, yangi O'zbekiston davlati va xalqi buyuk tarixning merosxo'ri hamda ulug' davlatlar, ulkan shaxsiyatlarining vorisi ekanining eslatmasidir.

Nutqning beshinchi qismi amalga oshirilgan ishlar tahlilidan iborat bo'lib, unda Prezidentimiz majburiy mehnatga barham berilgani, iqtisodiy o'sish natijalari, kambag'allikka qarshi kurash, yoshlarning sifati ta'lim olishi, tibbiyotga berilayotgan e'tibor, ma'naviyatning qo'llab-

quvvatlanishi hamda sportdagi yutuqlarni ta'kidlab o'tdi.

Nutqning oltinchi qismida istiqboldagi ishlarning asosiy yo'nalish va g'oyalari e'lon qilindi. Bunda ta'limni yaxshilash, tibbiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotda barqaror o'sish, tabiatni sifati himoya qilish, sudlar mustaqilligi va qonun ustuvorligini mustahkamlash, mahallaning hayotdagi amaliy o'rinni kuchaytirish, shuningdek, O'zbekiston nufuzini tinchlik, do'stlik va bag'rikenglik tamoyillari asosida yuksaltirish bosh maqsad sifatida ko'rsatildi.

Albatta, tabrik nutqlari, birinchi galda, siyosiy ahamiyatli hodisadir, lekin O'zbekiston Prezidentining ushbu nutqi hayot haqiqatlarining ko'zgusi ekanini bilan ham ta'sirchanlik kasb etdi. Haqiqatan, yurtimizda oxirgi o'n yilda ro'y berayotgan jadal rivojlanish — odamlar hayoti farovonlashgani, ishlab chiqarish va savdo-tijorat o'sgani, eng asosiysi, davlat idoralarining xalq bilan

ishlayotgani hamda biror murojaatning chetda qolmayotganini rad etib bo'lmaydi. Birgina bu tasnif bilan barcha yutuqlarni qamrab olish imkonsiz ekanini tabiiy.

Yarq etib ko'rinish turgan haqiqatlardan bir xalq ruhi ko'tarilgani hamda xalqda chindan jipslashish alomatlari paydo bo'lganidir. Prezidentimiz butun kuch-quvvati, iste'dodi va salohiyati bilan odamlarni birlashtirishga, ularning uxlab yotgan qobiliyat va imkoniyatlarini uyg'otishga tirishmoqda. Shaxsiy kuzatuv va xulosamga ko'ra, Prezidentimiz mamlakatimizdagi har bir insonning taqdiri va qismati haqida qayg'urib ishlamoqda. Hech kimning dilini og'ritmaslikka, ayni paytda ishlarni aniq va tizimli yo'lga qo'yishga, uyg'iq nazorat bilan maqsadga erishishga intilmoqda. Ya'ni siyosiy boshqaruvda bo'lsin, qarorlar ijrosini ta'minlashda bo'lsin, vazifalarni taqsimlashda yoki pirovardida mukofotlashda bo'lsin — barchasida teran hikmat namoyon bo'lmoqda.



Kechagi ezgu niyat — bugungi haqiqat



PURVIQOR TOG'LARDEK
BO'Y CHO'ZDI DILLAR

Purviqor tog'lar bag'rida joylashgan Shohimardon qishlog'i o'ziga xos ohanrabosi, tarovati bilan ajralib turadi. Betakror tabiati, zilol suvi, toza havosi, Oqsuv va Ko'ksuv soylari, mag'rur archazorlari dilingizga huzur bag'ishlaydi. Tanangiz rohatlanadi, ruhingiz yengil tortib, musaffo havodan to'yib-to'yib nafas olasiz.

Keyingi yillarda O'zbekistonning ochiq do'stona siyosati sabab qo'shni davlatlar bilan munosabatlar tubdan yaxshilandi. Xususan, Qirg'iz Respublikasi bilan aloqalarimiz mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Chegaralardan o'tish tartibi soddalashtirildi, qulayliklar yaratildi. Bugun Shohimardon qishlog'i sari oshiqayotgan sayohatchi-yu ziyoratchilar safi tobora kengayishmoqda. Ilgari bu anklav hududga borib kelish imkonsiz edi. Hozir masalalar hal etilib, aholi manfaati yo'lida qulayliklar yaratilyapti. Xalqimiz esa istiqbolli loyihalar, bunyodkorliklar haqida to'lib-toshib gapirmoqda.

"Ming bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rgan afzal" naqliga amal qilib, dam olish kunlari so'lim qishloq bo'ylab safarga chiqdik. Shu o'rinda bir gap: ilgari bu yerga borish uchun faqat "Vodil — Qadamjoy" chegara posti orqali o'tilgan. Endi Rishton, Quvasoy chegara hududlaridan ham bu joylarga borib kelish mumkin.

"Rishton — Qaytmas" chegara postiga yetib kelganimizda soat millari kunduzgi 12:00

ga bong urdi. Nari borsa, yigirma daqiqada Qirg'izistonning Qadamjoy tumani hududiga o'tdik. Piyoda bo'lganimiz bois, Qadamjoy bilan Shohimardonni bog'lovchi "Oq qiya" chegara postiga qadar mashina yolladik. Bizga Kamoliddin degan qirg'iz o'g'loni hamrohlik qildi. Haydovchi yig'it xushchaqchaq, so'zamol ekan. Suhbat bilan bo'lib, ikki chegara oralig'idagi qariyb 100 kilometr yo'lni qanday bosib o'tganimizni ham bilmay qolibmiz.

— Rishton tumanidagi Yoyilma qishlog'ida yaqin qarindoshlarimiz yashaydi, — deydi Kamoliddin. — O'zaro bordi-keldi munosabatlaridagi qiyinchiliklar, sun'iy to'siqlar tufayli 15 yil yaqinlarimiz bilan diydorlasha olmadik. Yo'llar ochilib, opamning uyiga mehmonga borganimda jiyanimni tanimaganman. Chunki tug'ilganidan buyon ko'maganmiz-da. Endi hammasi yaxshi tarafa o'zgardi. Vaqt, imkon bo'ldi deguncha, Yoyilмага mehmonga boramiz. Qarindoshlarimiz ham tez-tez kelib turadi. "Meh — ko'zda", deganlari rost ekan.

"Oq qiya" chegara postidan ham ortiqcha qiyinchilik va to'xtalishsiz o'tib, Shohimardonga yetib kelganimizda soat millari 14:00 ni ko'rsatdi.

— Bir necha yil avval bu yerga sayohatga kelganimizda chegaradan o'tish uchun olti soat vaqt sarflagandik. Qaytishda ham shunday holat takrorlangach, bu yerga kelmay qo'ygandik. Mana ko'z yumib-ochguncha manzilga yetib

keldik. Qilsa bo'larkan-ku, — deydi hayratini yashira olmagani hamroh. — O'zbekiston fuqarolarining qo'shni mamlakatda bo'lib turish muddati 5 kundan 15 kunga uzaytirildi. Chegaradan o'tishda qo'shimcha yo'laklar tashkil qilingani ayni muddat bo'ldi.

Shohimardon qishlog'i bugun har qachongidan-da gavjum, fayzli. Ko'chalarni kengaytirish, yoritqichlar o'rnatish, sayyohlar



Sheroz Qoraboyev olgan suratlar.

va ziyoratchilar uchun zaruriy infratuzilmalarni rivojlantirish bo'yicha ishlar jadal davom etmoqda. Qishloq markazidagi istirohat bog'ini zamonaviy turizm maskaniga aylantirish, bog' hududida amfiteatr, dam olish maskanlari qurish, aholi farovonligini oshirish yo'lida istiqbolli loyihalar amalga oshirilyapti.

Bolaligimizda yozgi ta'tilda oilaviy bu go'zal maskanga ziyoratga kelganimizda dorboz-o polvonlar o'yinlari, san'atkorlarning dilrabo qo'shiqlarini maroq bilan tinglab, tomosha qilganimiz kechagidek yodimda. Shu asnoda "Hazrati Ali" ziyoratgohida obodonlashtirish ishlari bilan mashg'ul bir guruh quruvchi e'tiborimizni tortdi.

— Maqbarani ta'mirlash, ziyoratchi va sayohatchilar uchun munosib shart-sharoitlari yaratib berishga hissa qo'shayotganimizdan faxrlanamiz, — deydi "Ijod" xususiy korxonasi ish boshqaruvchisi Azizbek Olimov. — Ta'mirlash ishlari milliy me'morchilik an'analarga xos uslubda bajarilyapti. Bu yerga qo'yilayotgan har bir g'isht, o'rnatilayotgan koshinlar muhtasham inshootni uzoq saqlash va butun dunyoga ko'z-ko'z qilish imkonini beradi.

Maqbaraga tutash hududda joylashgan Hamza memorial muzeyida boshlangan ta'mirlash ishlari poyoniga yetib, uni yangi eksponat, manbalar bilan boyitish choralari ko'rilmogda.

— Prezidentimizning shu yil 12-yanvardagi "Farg'ona" turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori viloyatimiz sayyohlik salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishda o'ziga xos imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi Farg'ona viloyati turizm boshqarmasi marketing bo'limi mutaxassisi Nodira Zokirova. — Ayni kunlarda "Shohimardon — Yordon" umumxavsumiy xalqaro kurort zonasi, "Vodil" malina agroturizm klasteri, "Chimyon" sanatoriya-kurort zonasi, "Avval" ko'ngilochar turizm majmualari tashkil etish borasida amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Shu kunga qadar "Shohimardon" va "Yordon" mahalla fuqarolar yig'inlari hududidagi mehmonxonalar, mehmon uylari, hostel va boshqa xizmat ko'rsatish shoxobchalari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgani, tegishli muvofiqlik sertifikat

mavjudligi hamda yagona reyestrga kiritilgani o'rganilib, 20 dan ortiq oilaviy mehmon uyi faoliyati ro'yxatga olindi.

Xorijlik investorlar tashabbusi bilan Shohimardon va Yordon qishloqlari o'rtasida zamonaviy dor yo'li, shisha yo'lak kabi qator infratuzilmalar barpo etishni qamrab olgan loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan. Bu xalqaro jozibaga ega turizm maskanlari ish samaradorligida o'ziga xos o'ringa ega. Istiqbolli rejalar dasturiga ko'ra, 2026-2029-yillarda umumiy qiymati 4,1 trillion so'mlik 48 ta manzilli investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Natijada 2500 ta yangi ish o'rni ochiladi.

— Oloy tog' tizmalariga tutashgan maskanda 11 mingdan ortiq odam istiqomat qiladi, — deydi "Shohimardon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nodirbek Hidayatov. — Ikki mamlakat Prezidentlarining amaliy sa'y-harakati bilan o'zbek va qirg'iz xalqlari Shohimardon, Yordon, Ko'li Qubbon, Qadamjoyga kelib, dam olishi, ziyorat qilishi uchun munosib shart-sharoit yaratib berildi. Chegaradan ID karta orqali o'tish tartibi amaliyotga kiritilib, qo'shimcha xizmatlar yo'lga qo'yildi. Bu fuqarolarimizga emir-erkin sayohatga kelish imkonini berayapti. Mahallamizdagi 60 dan ortiq mehmon uyi, 30 dan ziyod dala hovlida sayyohlar uchun munosib shart-sharoit yaratildi. Ishlar bu bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Sayohatchilarga qo'shimcha xizmat turlarini taklif etish, yangi infratuzilmalar faoliyatini kengaytirish bo'yicha "yo'l xaritalari" ishlab chiqildi. Loyiha tashabbuskorlari har jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Asosiy maqsad — sayohatchi va ziyoratchilar uchun munosib sharoit yaratish.

Chindan ham Shohimardon va Yordon qishloqlari tabiat mo'jizasining o'zginasini. Sayohatga kelganlar ana shu in'omdan kuch olib, ko'nglini nurafshon qilmoqda. Tog' havosi, tabiiy giyohlardan oziqlangan chorva sut, qatiq, qaymoq, qurut, shifobaxsh tog' asali, sarxil mevalar qadim maskanning tarovatini dunyoga ko'z-ko'z qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdim qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cair: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy